

JINOYAT SUBYEKTIV TOMONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi
Sodiqjonova Sevinch XXX*

Annotatsiya Ushbu maqolada jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgilari va ularning bir-biridan farqi, fakultativ belgilar qachon zaruriy belgi bo'lishi, kvalifikatsiyaga ta'siri, xato va uning turlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: subyektiv tomon, qasd, ehtiyotsizlik, motiv, maqsad, yuridik xato, faktik xato.

Subyekt tomon jinoyatning ruhiy mazmunini ta'riflab, u jinoyat tashqi ko'rinishi, ya'ni obyektiv tomoni bilan chambarchas bog'langan. Jinoyat tarkibining subyekt tomoni aybdorning jinoyat qonunida jinoyat sifatida nazarda tutilgan, aybdor o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan bo'lgan ruhiy munosabati bo'lib, uning aybi, motivi, maqsadi va his-tuyg'usini ifodalaydi¹.

Jinoyatning **subyektiv tomonining ahamiyatini quyidagilarda ifodalash mumkin:** 1) jinoyatning subyektiv tomoni qilmishning jinoyat ekanligi yoki jinoyat emasligini aniqlab beradi. Shaxsning o'zi anglamagan va anglashi mumkin bo'lmagan, ya'ni ongi bilan boshqarilmagan qilmishi jinoyat hisoblanmaydi. Har qanday qasddan yoki ehtiyotsizlikdan qilingan qilmishlar subyektning ongi bilan boshqarilgan, yoki o'zining harakati, yoki harakatsizligi tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatni anglagan, yoxud ish holatlariga ko'ra, anglashi zarurligi talab qilinadi; 2) obyektiv tomondan o'xshash bo'lgan jinoyatlarni bir-biridan farqini ajratib beradi. Jumladan, qasddan odam o'ldirish (97- modda)dan ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish (102-modda) ni qasddan odam o'ldirishdan jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan badanga og'ir shikast yetkazish (104-moddaning 3-qismi «d» bandi)ning farqlari asosan subyektiv tomonini tahlil qilish orqali aniqlanadi; 3) jinoyat subyektiv tomonining mazmuni qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda ham muhimdir. Shuningdek, shaxsning o'zini ijtimoiy xavflilik darajasi ham subyektiv tomoni orqali aniqlanadi. Shunga ko'ra, jinoyat subyektiv tomoni javobgarlikning xususiyati va jazo miqdoriga ham ta'sir qiladi. Ya'ni jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holat (55-56-moddalar) deb jazo tayinlash, yoki qonunda ko'rsatilganidan ham yengilroq jazo tayinlash (57-modda) da jinoyat subyektiv tomonining jinoyat tarkibi doirasiga kiradigan va kirmaydigan belgilari muhim ahamiyatga ega .

Subyektiv tomon belgilari quyidagilarni tashkil etadi:

¹ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.

- ayb;
- motiv;
- maqsad.

Ayb - subyektiv tomon zaruriy belgisi, motiv, maqsad, emotsiyalar esa - fakultativ belgisi sanaladi. Jinoyat tarkibida subyektiv tomonning bo'lmasligi jinoiy javobgarlikni istisno qiladi. Jinoyatning subyektiv tomonini to'g'ri aniqlash jinoyatchi shaxsning ijtimoiy xavfliligi darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi².

Ayb – bu barcha turdagi jinoyat tarkibi subyekt tomonining majburiy belgisi hisoblanadi. Ayb, shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi (harakat yoki harakatsizligi)ga nisbatan ruhiy munosabatida va ushbu ijtimoiy xavfli qilmish natijasida kelib chiqqan oqibatida ko'rinadi. Ayb qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida bo'lishi mumkin.

Motiv shaxsning jinoyat sodir etishga bo'lgan ichki mayli va xohishida ko'rinadi.

Maqsad – bu aybdorning shunday tasavvuriki, unda o'zi istagan natijaga jinoyat sodir etish bilan erishishi uchun intilishi tushuniladi. Motiv va maqsad fakultativ belgilar bo'lib, ya'ni ular har qanday tarkibni ham ifodalamaydi. Qachonki ular JKning maxsus qismi dispozitsiyasida ko'rsatib o'tilganida yoxud ularning mavjudligi yuridik tabiatning aniq bir jinoyat tarkibidan kelib chiqqanida, motiv va maqsad mana shu jinoyat tarkibi subyekt tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

His-tuyg'u shaxs jinoyat sodir etishida o'zida his qiladigan ichki kechinmalarda ko'rinadi. Aytish kerakki, ayrim olimlar his-tuyg'uni, jinoyat huquqida uncha muhim ahamiyatga ega bo'lmaganligi uchun subyekt tomon tarkibiga kirg'izishmaydi. Qonun chiqaruvchilar tomonidan ham qoida bo'yicha his-tuyg'u tushunchasi ishlatilmaydi. Biroq quyidagi: kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish (JK 98-moddasi); onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (JK 99-moddasi); kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 106-moddasi) kabi jinoyat tarkiblari istisnoni tashkil etadi. Ruhiy munosabat bilan har qanday munosabat o'rtasida bog'liqlik mavjud. Bu bog'liqlik subyekt (shaxs) va obyekt o'rtasida, subyekt atrofida tabiat, boshqa odamlar, ijtimoiy sharoit, jamiyat manfaati kabi voqelik yoki uning alohida tomonlarining ko'rinishidir. Odam o'z ongli maqsadini qo'ya bilishida va unga erishishida ifodalanadigan munosabatini anglash qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu odamning ruhiy munosabatining faolligi munosabat predmetining tarkibiga va aniq bir shaxsga bog'liq bo'lgan uning tanlash xarakteridan kelib chiqadi. Shuning uchun har bir harakat ruhiy lahzalarni ifodalab, bir necha aniq aspektlarni o'zi ichiga oladi.³

² Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism)/ o'quv qo'llanma-T.:TDYU nashriyoti, 2021.

³ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.

X.R.Ochilovning fikrlariga ko'ra, aybning shakllari quyidagilar⁴:

AYB			
№	Ayb shakllari	Tafakkuriy holati	Irodaviy holati
1	To'g'ri qasd	- qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaganligi; - ijtimoiy xavfli oqibatlarga ko'zi yetganligi.	- shunday oqibatlar ning kelib chiqishini istab harakat qilgan bo'lishligi.
2	Egri qasd	- qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaganligi; - ijtimoiy xavfli oqibatlarga ko'zi yetganligi.	- shunday oqibatlar ning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'yib berganligi.
3	O'z-o'ziga ishonish	- o'zining xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini ko'ra bilganligi.	- ehtiyotkorlik chora tadbirlariga ongli ravishda rioya qilmagan holda, ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilganligi.
4	Beparvolik	- o'zining xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasada, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lishligi.	- oqibatni oldini olishga harakat qilmaganligi.
5	Aybsiz holda zarar yetkazish	- o'zining xulq-atvori ijtimoiy xavfliligini anglamaganligi, anglashi lozim ham bo'lmaganligi.	- oqibatni oldini olish imkoniyatining haqiqatda mavjud emasligi.

Aybning darajasi jinoyat subyektining jinoyat holatlariga bo'lgan munosabatining shakli va tarkibi majmui bilan aniqlanadi hamda ijtimoiy qilmish darajasi bilan

⁴ Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism)/ o'quv qo'llanma-T.:TDYU nashriyoti, 2021.

belgilanadi. Bular quyidagilardan iborat: ruhiy munosabat xususiyatlari, jinoyatning motiv va maqsadi, shaxsni xarakterlaydigan holatlariga oid jinoiy qasd va ehtiyotsizlikning kelib chiqishiga turtki bo'lgan sabab va shart-sharoitlar. Masalan, qasddan sodir etilayotgan jinoyatda, aybdor obyektga tajovuz qilishida o'zining munosabatini ongli ravishda aniq ko'rinishlarda namoyon qiladi, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatda esa bunday ko'rinish bo'lmaydi. Binobarin, aybning darajasi qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etiladigan jinoyatlarga qaraganda ancha yuqori bo'ladi. Muayyan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishida aybning darajasi uning aybdorning mo'ljali chegarasini xato ko'rishidagi bevosita ko'rinishi hisoblanadi. Shuning uchun undan aybdorga tayinlanayotgan jazoning xususiyati va miqdori, huquqbuzarning mo'ljaldagi ijtimoiy defektlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan, jinoiy-huquqiy majburlashning o'lchovi to'g'ri bog'langan holda bo'ladi.⁵

M.X.Rustamboyev fikrlariga ko'ra, jinoiy niyatning vujudga kelish holatiga bog'liq holda oldindan o'ylangan, to'satdan paydo bo'lgan va affektli qasdlar farqlanadi. **Oldindan o'ylangan qasdda** jinoyat sodir etish niyatining vujudga kelishi jinoyat sodir etishning o'zidan bir qancha vaqt oraliqlari bilan ajratilgan bo'lib, unda shaxs jinoyatning tafsilotlarini o'ylab qo'yadi, rejasini tuzadi, usullarini belgilab oladi, jinoyat sodir etish uchun qurol, vosita, sherik va sh.k.larni tanlab oladi. **To'satdan paydo bo'lgan qasdda** qasdning paydo bo'lishi va uning amalga oshirilishi o'rtasidagi vaqt oralig'i uncha ahamiyatli emas. Jinoyatni sodir etish niyati qasdning paydo bo'lishi bilanoq amalga oshiriladi. **Affekt holatidagi qasdning** xarakterli tomoni shuki, shaxsda jinoyat sodir etish niyati kuchli ruhiy hayajonlanish holatida bo'lgan paytida (fiziologik affekt holati) paydo bo'lib, shaxs o'zi sodir etayotgan qilmishining xususiyatini anglashi qiyinlashadi. **Aniqlangan (konkretlashtirilgan) qasdda** subyekt kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararning hajmi va xususiyati to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lib, muayyan ijtimoiy xavfli oqibatlarining kelib chiqishini oldindan ko'ra oladi, qandaydir bir jinoiy natijaga erishishni istaydi. Masalan olaylik, ko'krak yoki bosh qismiga o'q otish orqali aybdor butunlay konkret bo'lgan individual aniqlangan jinoiy natija – jabrlanuvchining o'limi kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'ra oladi. **Aniqlanmagan (konkretlashtirilmagan) qasd** aybdorning o'zi sodir etayotgan qilmishi oqibatlari to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi, ya'ni ularning individual aniqlangan bo'lmaganligi, yetkaziladigan zararning hajmi va xususiyati konkret bo'lmashligi bilan ifodalanadi. Masalan, jabrlanuvchining boshiga va gavda qismiga urish orqali, aybdor unga tan jarohatlari yetkazayotganligini angelaydi, biroq uning tasavvuri yetkazilayotgan zararning og'irlik darajasini, ya'ni og'irmi, o'rtacha og'irmi yoki yengil tan jarohati bo'ladimi buni qamrab

⁵ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018

ololmaydi. **Alternativ qasd** aniqlangan (konkretlashtirilgan) qasdning bir turi bo'lib, aybdor o'zining sodir etgan huquqqa xilof qilmishi natijasidagi ikki yoki ancha individual aniqlangan ijtimoiy xavfli oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'ra oladi va anglab yetadi, shuning bilan subyektning irodasi teng darajalarda oqibatlardan xohlagan biriga erishishga qaratiladi. Masalan, jabrlanuvchining bosh qismiga urish orqali aybdor, jabrlanuvchining o'limi yoki unga og'ir tan jarohatlari yetkazish kabi oqibatni bir xil darajada oldindan ko'ra bilishi va ularning kelib chiqishini istashi mumkin⁶.

JK 23-moddasi murakkab ayb shaklida sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilab beradi. Ushbu qonunga ko'ra, «agar shaxsning qasddan jinoyat sodir etishi natijasida ehtiyotsizlik orqasida boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan va shunday qilmishni qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog'lagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi»⁷.

Bunday jinoyatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, qilmish qasddan sodir etiladi, ammo oqibatga nisbatan subyektning aybi ehtiyotsizlik shaklida bo'ladi. Agar ularni bir-biridan ajratib qasddan va ehtiyotsizlikdan qilingan jinoyatlar deb jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinsa, mazmuni va mohiyati jihatidan ehtiyotsizlikning aynan o'zidan iborat emas. Chunki bu ehtiyotsizlik qasddan qilingan jinoiy harakatning oqibati hisoblanadi. Kelib chiqqan ehtiyotsizlik oqibati bilan qasddan boshlangan jinoiy harakat o'rtasida jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgisi hisoblangan sababiy bog'lanish bor. Shunga ko'ra, qonun chiqaruvchi organ bunday jinoyatlarni murakkab aybli jinoyatlar deb, alohida tarkibda kvalifikatsiya qilishning belgisi sifatida nazarda tutib, alohida ajratib javobgarlikni belgilagan⁸.

Xato deganda - shaxs o'zi sodir qilgan qilmishining yuridik va faktik holatlariga nisbatan adashishi tushuniladi. Adashganlik xususiyatiga ko'ra, xato: yuridik va faktik xato turlariga bo'linadi. Yuridik xato deb - shaxs sodir qilgan qilmishining jinoyat huquqiy baholanishi haqidagi noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishiga aytiladi. Odatda, yuridik xato jinoyat kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi. Sababi, qilmish jinoyat qonunchiligi bo'yicha tavsiflanadi, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan shaxsning subyektiv fikri bo'yicha emas (masalan: shaxs birovga bergan qarzini qarzdor o'z vaqtida qaytarib bermaganligi uchun qarzdorga tegishli bo'lgan avtomashinani egasining ruxsatisiz uyiga olib kelib qo'yadi. Ushbu holatda u o'z harakatlarini qonuniy deb hisoblaydi. Lekin jinoyat qonuni ushbu holatda uning harakatlarini JK 229-moddasi “O'zboshimchalik” bo'yicha jinoyat deb topadi). **Faktik xato** deb esa -

⁶ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018

⁷ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018

⁸ Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik./M.Usmonaliyev, -T., “Yangi asr avlodi” 2005.

jinoyat tarkibining ob'ektiv belgisi hisoblanadigan holatlar to'g'risidagi noto'g'ri tushunchasi. Faktik xato jinoyatni kvalifikatsiyasiga ta'sir qiladi⁹.

Predmetdan noto'g'ri tushunish va baholash orqali paydo bo'lgan tasavvurlardan kelib chiqib, **faktik xatolarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:**

– sodir etilayotgan qilmishning ijtimoiy xavfliligiga nisbatan (masalan, shaxs ombor hududiga kirib, hisobdan chiqarilgan va yo'q qilishga mo'ljallangan, qimmatga ega bo'lmagan mulkni «o'g'irlaydi»);

– tajovuz obyektiga nisbatan (masalan, dorixonadan shaxs tarkibida narkotik modda saqlovchi dorini o'g'irlashga harakat qiladi, lekin u boshqa bir dorini o'g'irlaydi.);

– yetkazilgan oqibatga nisbatan (masalan, shaxs qandaydir oqibat paydo bo'lishi yoki yuzaga kelmasligiga nisbatan yanglishishi mumkin. o'z navbatida, har qaysi xatolardagi bunday yanglishishlar oqibatning sifat yoxud hajm tavsifiga nisbatan bo'lishi mumkin.);

– sababiy bog'lanishga nisbatan (masalan, avtomobilni boshqarayotgan tajribasiz haydovchi burilishda to'satdan qattiq tormoz berib, yo'l chetidagi shag'alga sirg'angan mashina birdan burilishi natijasida avtomashina ichidagi yo'lovchilar turli darajada tan jarohatlari olishdi).;

– javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar (masalan, o'g'irlik bilan bosqinchilik sodir qilinish usuli (yashirincha yoki ochiq) bo'yicha farqlanadi. o'g'irlik jinoyatining kvalifikatsiya qiluvchi asosiy mezon, bu – aybdorning sodir etayotgan qilmish haqidagi subyekt tasavvuri bo'lsa, bu aybdor qasdining yo'naltirilganligiga asosan kvalifikatsiya qilinishi lozim)¹⁰.

Jinoyat subyektiv tomonining **fakultativ belgilari** motiv va maqsadidir. **Jinoyat motivi** – bu shart bo'lgan muayyan ehtiyojlar va manfaatlarining anglangan yoki anglanmagan ichki xohish-niyati bo'lib, shaxs unga jinoyat sodir etishda tayanadi. **Jinoyat maqsadi** – bu aybdorning jinoyat sodir etish orqali o'zi xohlagan natijaga erishish haqidagi tasavvuridir¹¹.

Ayrim hollarda, ushbu belgilar JK Maxsus qism moddalari dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida ham nazarda tutilgan bo'lsa, ular jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lib keladi (masalan: JK 130-moddasi “Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish” jinoyati dispozitsiyasida maqsad jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida ko'rsatilgan). Emotsiyalar - insonning boshdan kechirayotgan his-tuyg'u va kechinmalaridir. Inson boshdan kechirishi mumkin bo'lgan barcha emotsiyalar ichida

⁹ Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism)/ o'quv qo'llanma-T.:TDYU nashriyoti, 2021.

¹⁰ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018

¹¹ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018

faqat affektgina jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Affekt fiziologik yoki patologik bo'lishi mumkin. Affekt holatida jinoyat sodir etish jazoni yengillashtiruvchi holat hisoblanadi, sharti shuki, u jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan bo'lishi lozim¹².

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda motiv va maqsad jinoyat tarkibi tuzilishida ko'rsatib o'tilgan belgilarning tutgan o'rni bilan baholanadi. Bunda **uch xil** ko'rinishga ega bo'lgan holatni ajratishimiz mumkin:

Birinchidan, motiv va maqsad jinoyat tarkibining asosiy elementlari qatoriga kiritiladi hamda jinoyat tarkibining zaruriy belgisini tashkil etib, ularning aniqlanmaganligi jinoyat tarkibi mavjud emasligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, motiv va maqsad jinoyat asosiy tarkibining zaruriy belgisiga kiritilmagan, biroq uning kvalifikatsiya qiluvchi belgilarida nazarda tutadi.

Uchinchidan, motiv va maqsad na asosiy tarkibning, na kvalifikatsiya qiluvchi tarkibning zaruriy belgilari sifatida nazarda tutilmagan hollarda ular jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi, biroq jazo tayinlashda inobatga olinishi mumkin¹³.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat tarkibining muhim elementlaridan biri - subyektiv tomondur. Subyektiv tomonning zaruriy belgilari: qasd (to'g'ri va egri) va ehtiyotsizlik (o'z-o'ziga ishonish va beparvolik oqibatida) hisoblanadi. Fakultativ belgilari: motiv va maqsaddir, ayrim hollarda ular zaruriy belgi bo'lib keladi. Jinoyat subyektiv tomoni muhim hisoblanib, kvalifikatsiyaga ta'sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
2. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik./M. Usmonaliyev, - T., "Yangi asr avlodi" 2005.
3. Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik/R. Kabulov, A.A. Otajonov, I.A. Sottiyev va boshq.-T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018.
5. Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism)/ o'quv qo'llanma-T.: TDYU nashriyoti, 2021.

¹² Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism)/ o'quv qo'llanma-T.: TDYU nashriyoti, 2021.

¹³ Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik/R. Kabulov, A.A. Otajonov, I.A. Sottiyev va boshq.-T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.